

TA'LIM MUASSASALARIDA O'QUVCHILAR BILIMINI BAHOLASHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

*Farg'ona imkoniyatlari cheklangan shaxslar uchun
Ixtisolashtirilgan kasb-hunar maktabi,
maxsus fan o'qituvchisi*

Xoliqova Zebiniso Rustamovna

Annotatsiya: *Ta'lim muassasalarida o'quvchilar bilimini baholashda zamonaviy yondashuvlar haqida ma'lumotlar berilgan.*

Kalit so'zlar: *imkoniyati cheklangan o'quvchilar, ichtimoiy tarmoq, kreativ yondashuvlar, metod, texnologiya.*

Hozirgi zamonaviy davrimizda kasb-hunar ta'lim muassasalarida o'quvchilar bilimini baholashda kreativ yondashuvlar albatta dars jarayonlari samaradorligiga katta ta'sir ko'rsatmoqda.

O'qituvchi o'quvchini qanday ijodiy fikrlashga o'rgatish imkoniyatiga ega. Hozirgi kunda o'quvchilarni erkin fikrlashga o'rgatish, darslarni yangi texnologiya va metodlar orqali o'tish o'quvchida bilim va ko'nikmalarni shakllantirish bilan birga ulardagi ijodiylik, yaratuvchanlik qobiliyatini ham shakllantirishga xizmat qiladi.

Kreativlik — shaxsning muammoli vaziyatlardan tafakkuri orqali, takrorlanmas yo'l bilan chiqib ketish, unga ijodiylik bilan yondasha olish qobiliyati hisoblanadi.

Kreativlik tushunchasi (lot., ing. «create» – yaratish, «creative» yaratuvchi, ijodkor) ingliz tilidan tarjima qilganda ijod ma'nosini anglatadi. Haqiqattan esa yangi, original (o'ziga xos) yanada sayqallangan moddiy va ma'naviy bog'liqliklarni yaratishdir. Kreativlikni ijodga intilish, hayotga ijodiy yondashish, o'ziga doimiy tanqidiy nazar solish va tahlil etish deyish mumkin. Hozirgi zamon psixologiya va pedagogika lug'atlariga asoslanib o'qituvchining kreativligiga uning fikridagi, muloqotdagi, alohida faoliyat turidagi ijodiy yondashish, bilish darajasi deb ta'rif berish mumkin.

Uning zamirida originallik, amaliylik, noodatiylik va erkinlik yotadi. Shuningdek, kreativ fikrlash bir narsaga turli tomondan yondashishni anglatadi. Har qanday inson tug'ilganda kreativ qobiliyat bilan dunyoga keladi. Uni qaysi yo'lga yo'naltirish va rivojlantirish o'qituvchi zimmasiga yuklatiladi. Demak, maktabda ta'limning barcha turlarida o'quvchilarning kreativ qobiliyatini rivojlantirishga e'tibor qaratish barkamol avlodni tarbiyalashning tayanch nuqtasi bo'lib xizmat qiladi.

Kreativ tafakkur barcha faoliyat turlariga tegishli. Bundan lingvistik kreativlik ham mavjud bo'lib, bu tilning turli sath birliklaridan foydangan holda obrazli fikrlash, ma'lum tafakkur mahsuli bo'lmish tushuncha yarata olish imkoniyatidir. Tilda tushunchani turli shaklda ifodalash imkoniyati mavjud.

Bunda o'quvchi qaysi usulni va qolipni tanlashi, qanday yo'l bilan ifodalashi, albatta, unda kreativ kompetensiyaga qanchalik egaligiga ko'ra belgilanadi. Tomas Edison "Kreativlik – g'ayriixtiyoriy jarayon", – deydi. Kreativlik shaxs ega bo'lgan bilimning ko'pqirrali ekanida emas, balki yangi g'oyalarga intilish, hayotiy muammolarni yechishda noodatiy yondasha olish, kutilmagan qarorlar chiqara olishda namoyon bo'ladi.

Kreativ fikrlovchi insonlar biron bir manzarani o'zgacharoq tasavvur etadi, hech kim ilg'amagan jihatlarni payqay oladi. Mana shunday kreativ tafakkurni rivojlantirish tashkil etilgan darsning qaysi metod va usullardan foydalanganlik darajasiga bog'liq bo'ladi. Bunda esa interfaol usullar yaqindan yordan beradi. Interfaol ta'lim turlaridan biri – kreativ ta'limdir.

Kreativ usulda o'tilgan mavzuni o'quvchi to'liq o'zlashtirishi bilan birga, ijodkorlik qobiliyatini ham rivojlantiradi. Agar o'quvchida she'r yozishga moyillik bo'lsa, u ijodiy matnni she'r orqali ham ifodalash imkoniyatiga ega bo'ladi. Ko'rib turganimizdek, bu kabi metodlar o'quvchida tezkorlik, shu bilan birga, kreativ kompetensiyani shakllanishida ham muhim rol o'ynaydi. Agar bunday usullardan ko'proq foydalanilsa, har qanday o'quvchi darsga qiziqadi, shu bilan birga kreativ qobiliyatga ham ega bo'ladi.

Bugungi kunda jamiyatimizning barcha sohalarida o'zgarishlar, jahon standartlariga javob berish uchun jadal rivojlanishlar yuz bermoqda. Jumladan ta'lim tizimida ham. Davlatimiz rahbari tomonidan 2021 yil 24 dekabrda oily ta'lim tizimini tub ijobiy o'zgarishlarga olib keladigan oily ta'lim muassasalariga moliyaviy, akademik va tashkiliy boshqaruvda mustaqillik berish borasida ikkita tarixiy qaror imzolandi. Bu esa o'z navbatida, oily ta'lim muassasalari boshqaruvida yangicha tizim asosida yondashuvni talab etadi.

Baholash ta'lim jarayonining muhim qismi hisoblanadi. Ta'lim sifatini hamda o'quvchilarni bilim darajalarini doimiy ravishda nazorat qilib borish ta'lim jarayoniga muhim yangiliklar kiritishga asos bo'ladi. Bugungi kunda yangi tizim asosida baholashning turli shakllari ishlab chiqilgan va talim jarayoniga taqdim etilmoqda. Shulardan biri formativ baholashdir.

Baholash deganda biz bolaning hozirgi yutuqlarini (muvaffaqiyatsizliklarini), oldingi yutuqlari (muvaffaqiyatsizliklari) bilan taqqoslash jarayonini va o'quv natijalarini amaldagi o'quv standartlari tomonidan belgilangan normalar bilan o'zaro bog'liqligini tushunamiz. Baholash mezonlari va shakllarini yaratish jarayoni o'quvchilar bilan birgalikda amalga oshiriladi va biz buni bolalarning qadr-qimmatini shakllantirishning bir usuli deb bilamiz. O'qitish jarayonida o'qituvchilar tomonidan qabul qilingan rasmiy va norasmiy baholash usullari to'plami "Formativ baholash" (shakllantiruvchi) deb nomlanadi. Bu o'qituvchilar tomonidan olib boriladigan o'quv jarayonining bir qismi bo'lib, o'quv va o'qitish usullarini o'zgartirish orqali o'quvchining tushunchasi va malakasini oshirishga qaratilgan.

Formativ baholash o'qituvchilarga ham, o'quvchilarga ham o'quvchining faoliyati va o'rganishi to'g'risida to'g'ridan-to'g'ri va batavsil mulohazalar berishga harakat qiladi. Bu o'quv jarayonida o'quvchilarning ehtiyojlari va taraqqiyotni kuzatadigan doimiy jarayon.

Formativ baholashning asosiy vazifasi o'quv yili uchun qo'yilgan maqsadlarning bajarilishi yoki bajarilmaganligini aniqlash. Shuning uchun o'qituvchilar ham o'quvchilar ham o'quv yili davomida erishmoqchi bo'lgan o'quv maqsadlarni aniq bilishlari kerak.

Sinflarida muntazam, doimiy shakllantiruvchi baholashdan foydalanadigan o'qituvchilar, o'quvchilarning faolligi va o'qishi ortib borayotganligini aniqlaydilar. O'qituvchilar shakllantiruvchi baholashdan olingan ma'lumotlardan butun guruh uchun ham, individual darslar uchun ham o'quv qo'llanmalarini o'zgartirish uchun foydalanishlari mumkin. O'quvchilar shakllantiruvchi baholashda ular o'zlarining qaerdaligini har doim bilishlarini va o'zlarining kuchli va kuchsiz tomonlarini tobora ko'proq anglab etishlari uchun foydali bo'ladi. Formativ baholashlarni tuzish oson, olish oson, to'plash oson va natijalardan foydalanish oson. Bunga qo'shimcha ravishda, ular bajarilishi uchun cheklangan vaqt talab etiladi. Formativ baholash o'quvchilarga individual maqsadlarni belgilashda yordam beradi va har kuni yutuqlarni kuzatib boradi.

Har qanday sinfda ishlatilishi mumkin bo'lgan formativ baholashning turli xil mexanizmlari mavjud. Ko'proq mashhur bo'lganlardan ba'zilari:

1. Bevosita so'roq qilish yoki uyga berilgan vazifalar,
2. O'qish jarayonidagi javob jumallari yoki dars paytida beriladigan topshiriqlar,
3. Dars paytida o'tkaziladigan nazorat ishlari
4. Grafik tashkilotchilik yoki o'quvchilarning darsdagi faolligini kuzatish,
5. Qaytuvchan aloqani amalga oshirish
6. O'quvchilarning o'z-o'zini baholashi,
7. Natijaga asoslanib ta'lim jarayoniga o'zgartirish kiritish imkoni.

O'qituvchi dars jarayonlarida o'quvchilarni baholash diagnostik, standartlashtirilgan testlar, viktorinalar, og'zaki, savollar yoki qoralama ish shaklida ham bo'lishi mumkin.

Baholashda keng tarqalgan shakli bu diagnostik baholash. Diagnostik baholash o'quvning tegishli dasturini aniqlash maqsadida o'quvchining hozirgi bilim va ko'nikmalarini o'lchaydi. O'z-o'zini baholash bu o'quvchilarning o'zlarini baholashni o'z ichiga olgan diagnostik baholash shakli.

O'qituvchilar o'quvchilar uchun eng foydali va ta'lim faoliyati uchun zarur bo'lgan shakllantiruvchi baholash turlarini yaratish va ulardan foydalanishlari kerak.

Shuning uchun o'qituvchidan o'z fani yuzasidan chuqur bilimga ega bo'lish bilan birga, ta'limdagi samarali metod va usullardan ham xabardorlikni talab etadi. Chunki kelajakdagi yangi innovatsiyalar va ixtirolarning barchasi aynan kreativ kompetensiya orqali vujudga keladi.

FOYDALNILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'rinova, N. M., & Yo'Ldosheva, D. A. Q. (2021). Oliy o'quv yurti talabalarida kreativ kompetentlikni rivojlantirishda faol ta'lim texnologiyalaridan foydalanishning mazmuni va samarali yo'llari. *Science and Education*, 2(12), 755-766.

2. O'rinova, N. M., & Yo'Ldosheva, D. A. Q. (2022). Oliy o'quv yurti talabalarida kreativ kompetentlikni rivojlantirishda faol ta'lim texnologiyalaridan foydalanishning mazmuni va samarali yo'llari. *Academic research in educational sciences*, 5(1), 97-105.

3. Zokirov, S. I., Sobirov, M. N., Tursunov, H. K., & Sobirov, M. M. (2019). Development of a hybrid model of a thermophotogenerator and an empirical analysis of the dependence of the efficiency of a photocell on temperature. *Journal of Tashkent Institute of Railway Engineers*, 15(3), 49-57.

4. Hamidullo o'g'li, T. H. (2022). HOZIRGI KUNNING DOLZARB IMKONIYATLARI. JAWS VA NVDA DASTURLARI. *ScientificImpulse*, 1(2), 535-537.

5. Горовик, А. А., & Турсунов, Х. Х. У. (2020). Применение средств визуальной разработки программ для обучения детей программированию на примере Scratch. *Universum: технические науки*, (8-1 (77)), 27-29.

6. Tursunov, H. H., & Hoshimov, U. S. (2022). TA'LIMTIZIMIDAKO'ZIOJIZO'QUVCHILARNIINFORMATIKAVAAHBOROTTEXNOLOGIYALARIFANIDAO'QITISHTEXNOLOGIYALAR. *Новости образования: исследование в XXI веке*, 1(5), 990-993.

7. O'quvchilar bilimibaholash gazamonaviy yondashuvlar – tema nauchnoy statyi po naukam ob obrazovanii chitayte besplatno tekst nauchno-issledovatel'skoy raboty v elektronnoy biblioteka kibberleninka (cyberleninka.Ru)

Ilkhom, A., Rakhmiddin, M., Ugli, K., Nurmukhammad, K., Ugli, K., & Kuyoshbek, Y. (2021). Factors of Educating Young People in the Spirit of Patriotism. *International Journal of Human Computing Studies*, 3(4), 10-12.

Tilavoldiyev, S., Madaliyev, R., & Komiljon o'g'li, Y. Q. (2022). MARKAZIY OSIYODAGI HARBIY-SIYOSIY VAZIYATNING O'ZIGA XOS JIHATLARI. *IJODKOR O'QITUVCHI*, 2(18), 13-17.

Sh, T. (2022). General Didactic Principles of Pedagogical Technologies. *Journal of Pedagogical Inventions and Practices*, 6, 94-97.

Tilavoldiyev, S., & Madaliyev, R. (2022). UMUMTA'LIM O'QUV YURTLARIDA HARBIY-VATANPARVARLIK VA OMMAVIY-MUDOFAA ISHLARINI REJALASHTIRISH VA OLIB BORISH. *IJODKOR O'QITUVCHI*, 2(23), 198-203.